

O'QUVCHILARDA LEKSIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI (INGLIZ TILI TA'LIMI MISOLIDA)

Gafforova Durdona Gafforovna

University of Business and Science. o'qituvchisi

Maxmudova Dildora Baxtiyor qizi

University of Business and Science. o'qituvchisi

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию современных технологий, используемых для развития лексической компетенции у школьников на уроках английского языка. В статье рассматриваются такие платформы, как Quizlet и Kahoot!, а также мультимедийные средства, которые способствуют эффективному усвоению новых слов и улучшению их применения в речи. Исследование показало, что использование интерактивных технологий повышает мотивацию учащихся, помогает развивать их самостоятельность в обучении и улучшает результаты тестов. Было проведено педагогическое исследование, которое продемонстрировало значительное улучшение лексических навыков учеников при использовании данных технологий.

Ключевые слова: лексическая компетенция, интерактивные технологии, Quizlet, Kahoot!, мультимедийные средства, английский язык, мотивация, самостоятельное обучение.

Annotation: This article explores modern technologies used to develop lexical competence in school students during English language lessons. The article discusses platforms such as Quizlet and Kahoot!, as well as multimedia tools that contribute to the effective acquisition of new vocabulary and its use in speech. The study demonstrated that the use of interactive technologies increases students' motivation, fosters self-directed learning, and improves test results. A pedagogical experiment showed a significant improvement in students' lexical skills when using these technologies.

Key words: lexical competence, interactive technologies, Quizlet, Kahoot!, multimedia tools, English language, motivation, self-directed learning.

Annotatsiya: Ushbu maqola o'quvchilarda leksik kompetentlikni rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tadqiqotga bag'ishlangan. Maqolada Quizlet va Kahoot! kabi platformalar hamda multimediya vositalari tahlil qilinib, ularning yangi so'zlarni o'zlashtirish va qo'llashdagi samaradorligi ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv texnologiyalar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, o'z-o'zini o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi va test natijalarini yaxshilaydi. Pedagogik eksperiment natijasida texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning leksik ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlangani aniqlangan.

Kalit so'zlar: leksik kompetentlik, interaktiv texnologiyalar, Quizlet, Kahoot!, multimediya vositalari, ingliz tili, motivatsiya, mustaqil ta'lim.

KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi o'quvchilarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, pedagogik faoliyatda interaktiv uslublar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonni samarali va qiziqarli qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, interaktiv platformalar, xususan, «Quizlet» va «Kahoot!» kabi dasturlar o'quvchilarning lisoniy bilimlarini mustahkamlashda yordam beradi. Ushbu vositalar yordamida leksik birliklarni o'rganish, takrorlash va amaliyotda qo'llash osonlashadi. Shuningdek, ushbu platformalar yordamida o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish va bilim darajasini oshirish imkoniyati kengayadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, leksik kompetentlikni shakllantirishda asosiy e'tibor lisoniy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilishi kerak. Leksik kompetentlikning o'zi esa o'quvchilarning so'z boyligi, ularning so'zlarni to'g'ri va samarali qo'llay olish qobiliyati bilan bog'liqdir. Bu kompetentlikni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, leksik birliklarni samarali o'rganish uchun o'quvchilar nafaqat ularning ma'nolarini o'zlashtirishlari, balki ularni kontekstda to'g'ri qo'llash ko'nikmasiga ham ega bo'lishlari kerak. Bu jarayonni avtomatlashtirish uchun texnologik vositalardan foydalanish katta yordam beradi.

Masalan, Quizlet platformasi yordamida leksik birliklarni takrorlash va o'quvchilarning ularga oid eslab qolish darajasini oshirish mumkin. Bu platforma leksik materiallarni vizual va audial shaklda taqdim etishga imkon beradi, bu esa so'zlarning ma'nolarini chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, Quizletdagi turli xil o'yin va mashqlar orqali o'quvchilar leksik birliklarni faol qo'llashga o'rganadilar. Shuningdek, bu platformaning oddiy va qulayligi o'quvchilar orasida keng tarqalishiga sabab bo'lgan.

Bundan tashqari, «Kahoot!» platformasi ham leksik kompetentlikni rivojlantirishda o'quvchilarning ishtirokini faollashtirishga xizmat qiladi. Ushbu platforma yordamida interaktiv tarzda so'z o'rganish, ularga oid bilimlarni sinash va mustahkamlash mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar zamonaviy texnologiyalar yordamida o'rgangan leksik materiallarini amaliyotda yanada tez va samarali qo'llay oladilar. Bu esa ularning lisoniy ko'nikmalarining rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi.

Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarning afzalliklari orasida o'quvchilarning mustaqil ravishda ta'lim olish imkoniyati ham mavjud. Buning natijasida o'quvchilar o'zlariga qulay bo'lgan vaqtda o'quv materiallarini qayta ko'rib chiqishlari, takrorlashlari va yangi bilimlarni o'zlashtirishlari mumkin. Shuningdek, bu texnologiyalar o'qituvchilar uchun ham katta yordam bo'lib, o'quv jarayonini rejalashtirish va nazorat qilishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Metodlar

Birinchi navbatda, tadqiqot metodologiyasida «pedagogik eksperiment» asosiy o'rin egallaydi. Bu usul yordamida o'quvchilarning zamonaviy texnologiyalar yordamida leksik bilimlarini oshirish jarayoni kuzatildi va baholandi. Pedagogik eksperiment ikkita asosiy bosqichdan iborat: «diagnostik bosqich» va «eksperimental bosqich». Diagnostik

bosqichda o'quvchilarning dastlabki lisoniy tayyorgarligi, ularning leksik bilim darajasi va so'z boyligi aniqlanadi. Ushbu bosqichda o'quvchilarning dastlabki bilimlari baholanishi uchun turli testlar va mashqlar qo'llanildi. Ushbu baholashdan so'ng, asosiy eksperimental bosqichga o'tildi.

Eksperimental bosqichda esa o'quvchilarning leksik kompetentligini rivojlantirish maqsadida zamonaviy interaktiv texnologiyalardan foydalanildi. Bu texnologiyalar, jumladan, «Quizlet», «Kahoot!», shuningdek, turli multimediya vositalari va mobil ilovalar tadqiqotda asosiy o'rin tutdi. Ushbu texnologiyalar yordamida o'quvchilarga so'z boyligini oshirishga qaratilgan turli mashqlar, o'yinlar va topshiriqlar berildi.

Birinchi qo'llangan usul – «Quizlet platformasidan foydalanish» bo'lib, bu platforma o'quvchilarning yangi leksik birliklarni tez va samarali o'zlashtirishiga xizmat qildi. Quizletning asosiy afzalligi – bu platformada leksik birliklarni takrorlash va mustahkamlash uchun turli xil kartochkalar va mashqlar mavjudligi. Quizlet platformasi yordamida o'quvchilarga yangi so'zlar vizual tarzda taqdim etildi, ularning talaffuzi va ma'nosi bilan tanishish imkoniyati yaratildi. O'quvchilarning mustaqil ravishda so'zlarni eslab qolish ko'nikmalari rivojlantirildi va bu jarayon qiziqarli o'yin shaklida amalga oshirildi. Tadqiqot davomida Quizlet platformasining o'quvchilar orasida keng qamrovli mashhurlikka erishgani va leksik kompetentlikni rivojlantirishga katta hissa qo'shigani kuzatildi.

Keyingi qo'llangan usul – «Kahoot! platformasida testlar va interaktiv mashqlar o'tkazish». Ushbu platforma o'quvchilarni lisoniy bilimlarini tekshirish va mustahkamlash uchun juda samarali vosita bo'ldi. Kahoot! interaktiv o'yinlar va testlar yordamida leksik kompetentlikni baholashda hamda o'quvchilar orasida raqobat muhiti yaratishda yordam berdi. Bu platforma o'quvchilarning diqqatini jalb qilish va ularning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlashda muvaffaqiyatli bo'ldi. Kahoot! orqali o'tkazilgan interaktiv testlar o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga va ularda yangi so'zlarni tezroq o'zlashtirishga yordam berdi.

Ushbu platformalardan foydalanishdan tashqari, tadqiqot davomida «multimediya vositalari», jumladan, «video materiallar» va «audiovizual mashqlar» ham qo'llanildi. O'quvchilar uchun maxsus tayyorlangan videolar va audio yozuvlar orqali ular yangi leksik birliklarni kontekstda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu vositalar o'quvchilarning eshitish, ko'rish va talaffuz qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berdi. Ayniqsa, video materiallar orqali o'quvchilar real hayotdagi vaziyatlarda so'zlardan qanday foydalanish kerakligini o'rganib, bu so'zlarni o'zlarining nutqlariga kiritishga harakat qildilar.

Tadqiqot metodlarining yana bir muhim komponenti – «ko'p bosqichli o'quv dasturlari» bo'lib, bu dasturlar o'quvchilarning individual imkoniyatlariga moslashtirilgan. O'quv dasturlari o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga ko'ra moslashtirilib, ularning bilim darajasini oshirishga qaratilgan edi. Dasturda o'quvchilarning leksik kompetentligini rivojlantirish maqsadida bosqichma-bosqich vazifalar berildi. Har bir bosqichda o'quvchilarga yangi so'zlarni o'rganish va ularni amaliyotda qo'llash imkoniyati yaratildi. Ushbu dastur orqali o'quvchilarning ta'lim

jarayoniga bo'lgan qiziqishlari oshdi va ular o'zlarining bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantirishga intildilar.

O'quvchilarning leksik kompetentligini rivojlantirish uchun yana bir samarali usul bu – «gruppa bo'lib ishlash metodlari» edi. Gruppaviy mashqlar orqali o'quvchilar birgalikda ishlashni o'rganib, yangi so'zlarni bir-birlariga tushuntirish va muhokama qilish orqali mustahkamlashdi. Bu usul o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantirdi va ularni guruhda ishlashga o'rgatdi. Gruppaviy vazifalar natijasida o'quvchilar yangi so'zlarni o'rganishda bir-birlariga yordam berishdi va o'zaro tajriba almashish orqali leksik kompetentliklarini oshirishdi.

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida «motivatsion metodlar» ham qo'llanildi. Bu metodlar yordamida o'quvchilarning ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning leksik bilimlarini yanada chuqurlashtirish maqsad qilingan edi. O'quvchilarga turli xil rag'batlantirish usullari, masalan, yuqori natijalar uchun ballar va sovrinlar berish orqali ularning qiziqishlari rag'batlantirildi. Ushbu motivatsion yondashuvlar o'quvchilarni yanada faolroq ishlashga undadi va ularda yangi bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirdi.

Muxokama va natijalar

Tadqiqot jarayonida amalga oshirilgan pedagogik eksperiment asosida olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, zamonaviy texnologiyalar, xususan, «Quizlet» va «Kahoot!», o'quvchilarning lisoniy bilimlarini oshirishda va ularning leksik kompetentligini shakllantirishda sezilarli natijalarni berdi.

Eksperimental bosqichda olingan ma'lumotlarga ko'ra, tadqiqotda qatnashgan o'quvchilarning «leksik zaxirasi» va «so'zlarni to'g'ri qo'llash qobiliyati» sezilarli darajada oshgan. Bu natijalarni taqqoslashda diagnostik bosqichda o'quvchilarning dastlabki leksik bilimlari va keyingi bosqichda erishilgan natijalar o'rtasida aniq farqlar kuzatildi. Misol uchun, o'quvchilarning so'z boyligi baholashda ular diagnostik bosqichda test savollarining o'rtacha 60% ga javob bera olishgan bo'lsa, eksperiment yakunida bu ko'rsatkich 85% ga ko'tarildi. Bu natija o'quvchilarning yangi leksik birliklarni tezroq va samarali o'zlashtirayotganligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida «Quizlet platformasi» yordamida amalga oshirilgan mashqlar o'quvchilarning leksik kompetentligini rivojlantirishda o'zining yuqori samaradorligini namoyon qildi. O'quvchilar yangi so'zlarni vizual va audial tarzda o'rganib, ularni ko'proq marta takrorlash orqali mustahkamlay olishdi. Quizlet platformasi o'quvchilarga taqdim etilgan «flash-kartalar» va turli xil o'yinlar yordamida so'zlarni o'zlashtirishni osonlashtirdi. Shu orqali o'quvchilar o'zlari mustaqil ravishda ishlay olishdi va ularga qiziq bo'lgan mashqlar orqali leksik birliklarni faolroq o'rgandilar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Quizlet yordamida o'tkazilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning yangi so'zlarni eslab qolish qobiliyatini sezilarli darajada oshirdi.

Shuningdek, «Kahoot! platformasi» yordamida o'tkazilgan interaktiv testlar ham samarali natijalar berdi. Ushbu platformaning o'yin shaklida tashkil etilgan testlari o'quvchilar orasida raqobat ruhini kuchaytirib, ularni faolroq qatnashishga undadi. Kahoot! orqali o'tkazilgan testlar natijalari ko'rsatdiki, o'quvchilar yangi o'rgangan

so'zlarni kontekstda to'g'ri qo'llay olishgan va ularni eslab qolish ko'rsatkichlari ham yuqori bo'lgan. Bu platforma o'quvchilarning diqqatini jalb qilish va ularni tezroq va samaraliroq o'qishga undashda katta yordam berdi.

Tadqiqotda qo'llangan «multimediya vositalari» orqali o'quvchilarni lisoniy materiallarga chuqurroq sho'ng'ishlari ta'minlandi. Videolar va audiomateriallar yordamida o'quvchilar real hayotiy vaziyatlarda yangi so'zlarni qanday ishlatish kerakligini ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu usul ularning «eshitish», «ko'rish», va «talaffuz qilish» ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, multimediya vositalaridan foydalanish o'quvchilarni yangi leksik birliklarni yanada chuqurroq va samarali o'zlashtirishlariga yordam bergan.

Yana bir muhim natija sifatida, o'quvchilarning ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishlarining sezilarli darajada oshganligi qayd etildi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida o'tkazilgan mashg'ulotlar o'quvchilar orasida motivatsiya va qiziqishni oshirgan. «Motivatsion metodlar» orqali o'quvchilarning ta'limga bo'lgan yondashuvi ijobiy tomonga o'zgardi. Ular mashg'ulotlarda faol ishtirok eta boshlashdi va o'z bilimlarini rivojlantirishga ko'proq intilishdi. Rag'batlantirish usullari, masalan, ballar va sovrinlar o'quvchilarda raqobat ruhini shakllantirgan va bu ularning lisoniy bilimlarini oshirishda katta yordam bergan.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning leksik kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash samarali ekanligi tasdiqlandi. «Eksperimental guruh» bilan amalga oshirilgan mashg'ulotlar natijalari, ularning leksik bilimlari va qo'llash ko'nikmalarini ancha yaxshilanganligini ko'rsatdi. Taqqoslash uchun, «nazorat guruhi» o'quvchilari bilan an'anaviy usullarda o'tkazilgan mashg'ulotlar natijalari sezilarli darajada past bo'ldi. Nazorat guruhidagi o'quvchilarning so'z boyligi o'sishi faqatgina 10-15% ni tashkil etdi, bu esa zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan eksperimental guruhidagi 25-30% o'sish bilan taqqoslaganda ancha past ekanligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va interaktiv platformalar ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Bu bo'limda tadqiqot natijalarini tahlil qilish, ularning ta'lim jarayoniga ta'siri va o'quvchilarning lisoniy kompetentliklarini rivojlantirishda ushbu texnologiyalarning roli haqida muhokama qilinadi.

Zamonaviy ta'limda texnologiyalarni qo'llash avvalambor o'quvchilarning qiziqishini oshirish va ta'limni individualizatsiya qilish imkonini beradi. Ular o'quvchilarga o'z bilish jarayonlarini boshqarish, o'z o'rganish usullarini tanlash va darslar davomida faol ishtirok etish imkoniyatini yaratadi. Masalan, «Quizlet» va «Kahoot!» kabi platformalar o'quvchilarning o'z bilimlarini baholash va takrorlashda faol ishtirok etishlariga imkon beradi. Ushbu platformalar yordamida o'quvchilar o'z bilish jarayonlariga mas'uliyat bilan yondashadilar va o'zlarining natijalarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Kuzatilgan natijalar, o'quvchilarning zamonaviy texnologiyalar yordamida o'rganish jarayonidagi ishtirokini yanada oshirishda qanday rol o'ynayotganini

ko'rsatadi. O'quvchilar ushbu platformalarning qulayligi va interaktivligi sababli darslarga ko'proq qiziqish bildirishdi. Ularning fikrlariga ko'ra, darslarda interaktiv testlar va o'yinlar orqali o'qish jarayoni yanada qiziqarli bo'ladi va yangi materiallarni o'rganish jarayoni osonlashadi.

Leksik kompetentlik, o'z navbatida, o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va ularni kontekstda to'g'ri ishlatish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Tadqiqot davomida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning leksik bilimlarining tez o'sishiga olib keldi. Olingan natijalar, o'quvchilar yangi so'zlarni tez o'zlashtirish va ularni amaliyotda qo'llashda yuqori natijalarga erishishdi.

Ushbu natijalar zamonaviy texnologiyalar yordamida o'quvchilarning leksik kompetentligini rivojlantirishda qulay shart-sharoitlar yaratishga yordam berganligini ko'rsatadi. Bunga misol sifatida, «Quizlet» platformasida o'tkazilgan mashg'ulotlar keltirilishi mumkin. Ushbu platforma yordamida o'quvchilar yangi so'zlarni kartochka shaklida o'rganib, ularning talaffuzi va ma'nosini eslab qolish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu jarayonda o'quvchilarning faolligi va mustaqil ishlash ko'nikmalari oshdi.

Shuningdek, o'quvchilar «Kahoot!» orqali o'tkazilgan interaktiv testlar natijasida ham yangi so'zlarni kontekstda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ushbu platforma yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini baholash va takrorlash jarayonida bir-birlari bilan raqobatlashdilar. Bu esa o'quvchilarning leksik bilimlarini oshirishda ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'quvchilar bir-birlarining natijalarini ko'rib, o'z bilimlarini yanada takomillashtirishga harakat qildilar.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, motivatsion yondashuvlar o'quvchilarning leksik kompetentliklarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. O'quvchilar uchun rag'batlantiruvchi omillar, masalan, mukofotlar, ballar va turli xil sovrinlar berish, ularning o'z bilish jarayoniga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda samarali bo'ldi. O'quvchilar, o'z navbatida, qiyin vazifalarni bajarishga tayyor edilar va yangi so'zlarni o'rganishga ko'proq e'tibor berdilar.

O'quvchilarning o'z-o'zini baholash qobiliyati ham yangi texnologiyalar yordamida rivojlandi. Ular o'z bilimlarini testlar va mashqlar orqali baholash imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bu o'quvchilarga o'z bilish jarayonini nazorat qilish va natijalariga ko'ra o'zlarini takomillashtirishga imkon berdi. O'quvchilar o'z bilish jarayonini baholashda o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirdilar, bu esa ularning o'zlariga ishonch hissini oshirdi.

Ushbu tadqiqot davomida guruhiiy ishlash metodlari ham qo'llanildi. O'quvchilar bir-birlari bilan fikr almashish va muhokama qilish orqali yangi so'zlarni o'rganishlari mumkin bo'ldi. Guruhiiy ishlar orqali o'quvchilar o'zaro tajriba almashdilar va yangi leksik birliklarni o'rganishda bir-birlariga yordam berdilar. Bu metod o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berdi va o'quv jarayonini yanada samarali qildi.

Guruhiiy ishlash jarayonida o'quvchilar bir-birlariga savollar berish, fikr almashish va birgalikda yechimlar topishga harakat qildilar. Bu esa o'quvchilar orasida ijtimoiy

o'zaro aloqalarni kuchaytirdi va ularning o'zaro muloqot ko'nikmalarini rivojlantirdi. O'quvchilarning birgalikdagi ishlari ularga yangi so'zlarni o'rganishda yanada samarali bo'lishga yordam berdi.

Tadqiqot davomida o'quvchilarning leksik kompetentliklarini rivojlantirishda turli texnologiyalar va metodlarni integratsiyalash ham muhim ahamiyat kasb etdi. O'quvchilar zamonaviy texnologiyalar yordamida o'rganish jarayonini yanada kengaytirish va qiziqarli qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu yondashuv o'quvchilarning dars davomida faol ishtirok etishini ta'minladi va ularning motivatsiyasini oshirdi.

Bunday integratsiya o'quvchilarga yangi so'zlarni o'rganish, ulardan foydalanish va ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratdi. Buning natijasida o'quvchilarning lisoniy ko'nikmalari rivojlandi, ular yangi so'zlarni osonlik bilan eslab qolish va ularni to'g'ri qo'llash qobiliyatiga ega bo'ldilar. Shuningdek, o'quvchilarda o'z-o'zini baholash va o'z bilimlarini nazorat qilish qobiliyatlari ham oshdi.

Tadqiqot davomida o'quvchilarga individual yondashuv ham qo'llanildi. Har bir o'quvchi o'zining o'rganish uslublariga ko'ra moslashtirilgan dasturlar orqali ta'lim oldi. Bu yondashuv o'quvchilarga o'zlarining individual imkoniyatlarini hisobga olish imkonini berdi. O'quvchilar o'zlariga qulay bo'lgan vaqtda materiallarni ko'rib chiqishlari, takrorlashlari va yangi bilimlarni o'zlashtirishlari mumkin edi. Bunday individual yondashuv natijasida o'quvchilar o'z o'rganish jarayonlarini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ldilar va o'z bilishlariga yanada ko'proq e'tibor berdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ватютнев М. Н. Коммуникативная направленность обучения русскому языку в зарубежных школах // Русский язык за рубежом. – 1977. – № 6. – С. 38-45
28:3 source.

2. Заславская О. Ю. Создание онлайн-карточек и заданий разного типа Quizlet.com (дата обращения: 07.03.2023)

3. Иванова О. В. Использование сервиса Quizlet как средства формирования лексической компетенции студентов бакалавров, будущих учителей иностранного языка

4. V.D. Arakin. "Xorijiy til o'qitish metodikasi". Moskva: Tilshunoslik nashriyoti, 2019.

5. Togayeva Sabohat Safar qizi. "Xorijiy til leksik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari". Termez Iqtisodiyot va Servis Universiteti, 2024.

6. Jurazoda M.I. UNIVERSAL EDUCATIONAL ACTIONS: A MODERN APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' COGNITIVE ABILITIES. CRJP 2024, 5, 41-45. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-05-05-08>

7. Жураева М. «Обзор методичек и пособий по преподаванию языкознания и литературы до 2000» //Boshlang 'ich sinf o 'quvchilarida universal ta'lim faoliyatini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya. – 2023. – С. 331-333.

8. Журазода М.И «Методологические основы универсальных учебных действий.» (2024). Retrieved 2 April 2024, from <https://research-edu.com/index.php/conf1/article/view/62>